

“RUSTAM” DOSTONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH

Kuvondikova Gavhar Isomiddinovna

*O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘qituvchisi
kuvondikovag@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10280212>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Rustam” dostonini oliy ta’limning adabiyot darslarida mustaqil ta’lim sifatida o‘qitsih uchun tavsiya etilgan. Dostonni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan Muommoli ta’lim va Hamkorlik texnologiyalari asosida “Debat”, “Shohnomaga sayohat”, “Tugallanmagan maktub” va “Qahramonlar ruhiyatiga nazar” usullaridan samarali foydalanilgan.

Abstract. In this article the epic “Rustam” is recommended for teaching as an independent study in literature classes of higher education. Pedagogical technologies based on problem based learning and cooperation technologies such as “Debat”, “Journey to Shahnoma”, “Unfinished letter” and “Looking into the psyche of the heroes” vere effectively used in the teaching of the topic.

Kalit so‘zlar. Texnologiya, doston, muommoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi, debat, Shohnomaga sayohat, tugallanmagan maktub.

Key words. Technology, epic, problematic education, collaborative technology, debate, trip to Shahnoma, unfinished letter.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi va ma’rifat tushunchasini shakllantiradigan, uning ma’no-mazmunini boyitadigan asosiy manbalardan biri xalq dostonlaridir.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg‘or va hayotbaxsh an’analarni o‘zida mujassamlashtirgan ma’naviyat sarchashmasidir. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. “Rustam” dostoni turonning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki, asarda turon yurtiga xos o‘ylash tarzi, ta’sirlanish yo‘sini, qarorga kelish tutumi g‘oyat nozik ilg‘ab olingan. Bizning nazarimizda doston markazida ma’rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta’siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish uchun emas, balki “qissa”ning o‘zi ko‘lamli, miqyosli, yirik, ta’sirli bo‘lgani uchun aytilgan. Chindan-da, “Rustam” yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki, doston qahramonlariga xos tuyg‘ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turonliklarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi¹ “Rustam” dostonida ma’naviy

¹ Йўлдошев Қ. — дoston бaдиияти хамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар.- Тошкент: Маънавият, 2002-йил, 28-бет.

merosning eng qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar alohida o'rin tutadi.

Xo'sh, bunga qanday erishamiz? Bu jarayonni quyidagi usullarda ko'rib chiqamiz. Oliy ta'limda Adabiyot darsligida mustaqil ta'lim uchun ham dars soatlari ajratiladi. Mustaqil ta'limda "Rustam" dostoni maxsus o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiy ta'lim bu inson tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyosdir². Shunday ekan biz dastlab pedagogik texnologiya tushunchasi nima ekanligini bilib olishimiz maqsadga muvofiqdir. "Texnologiya" tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) va "logos" (Logos) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Hunar fani"ni o'rganish degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872-yilda qo'llanilgan⁹.

Rossiyalik olimlaridan biri – V.M. Monaxov "Pedagogik texnologiya –

avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", – degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. "Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi", – deydi u³. M.V. Klarin fikricha, "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir"⁴.

Adabiyot darslarida qo'llaniladigan texnologiyalarga:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;
2. Muammoli ta'lim texnologiyasi;
3. Hamkorlik texnologiyasi;
4. Loyihalash texnologiyasi;
5. O'yin texnologiyasi.

"Hamkorlik pedagogikasi har bir bola shaxsiyatida demokratik sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Har bir bola huquqini qanchalik his etsa, burchini ham shunchalik darajada anglaydi, faoliyatida qanchalar erkin bo'lsa, bu erkinlik o'zgalarning hurligiga dahl qilmasligi kerakligini shunchalar his etadi"⁵ – deydi Q.Yo'ldoshev o'z dissertatsiya ishlarida. Shunday ekan adabiyot darslarini samadorligini ta'minlashda hamkorlik texnologiyasidan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamkorlikdagi ta'limning odatdagi o'qitish usulidan asosiy farqi shundaki, individual ta'limda har bir o'quvchi faqat o'zini biladi, atrofdagilar bilan ishi bo'lmaydi. Bilimli o'quvchi

² To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: www.Ziyouz.com kutubxonasi. 2010. – B.

³ Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. - Волгоград: Перемена, 1995.

⁴ Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига: НИЦ Эксперимент, 1995.

⁵ Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Toshkent:1996. –B.59.

boshqalarning ham o'zi kabi bo'lishidan manfaatdor emas. Hamkorlikdagi ta'limda esa guruhdagi har bir o'quvchining to'liq o'zlashtirishi nafaqat uning o'zi, balki guruh a'zolarining hammasi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Hamkorlikda amalga oshirilgan ta'lim nafaqat oson va qiziqarli, balki samarali hamdir. Chunki ko'pdan yaxshi, to'g'ri va yangi fikrlar ko'p chiqishi mumkinligi isbot talab etilmaydigan haqiqat. Qolaversa, hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarning intellektual rivojiga ta'sir qilibgina qolmay, ularning ma'naviy o'sishini ham tezlashtiradi. Zero, jamoachilik tuyg'usi, bir-biriga yelkadoshlik hissi o'quvchilarda ezgu axloqiy sifatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi⁶.

Asar qahramonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi natijasida nimalarga erishganligi yoki aksincha holatlarini o'quvchilar tahlil qilishiga sharoit yaratish lozim. Tabiiyki, "Bu qanday amalga oshiriladi", – degan savol tug'iladi, albatta. Bu savolga javob topish uchun bir nechta usullarni ko'rib chiqamiz.

“To'rtinchisi ortiqcha“

Bu metodda guruhlariga kartochka tarqatiladi. Kartochkaning uch qatorida bitta doston qahramonlari va bitta qaysidir qatorida boshqa doston qahramonlari keltiriladi. Guruh a'zolari qaysi doston qahramonlari ortiqcha ekanligini aniqlashi lozim.

1-guruh

1. Jamshid Ahriman
2. Rustam Ajrang dev
3. Zol Som
4. Suhrob Zobuliston

Boshqa guruhlariga ham shunday tartibda davom etadi.

“Qahramonlar ruhiyatiga nazar” texnologiyasi

Ushbu texnologiyada har bir guruhga alohida qahramonlar beriladi va o'quvchilar berilgan qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlarini misollar asosida yoritib berish topshirig'i yuklatiladi.

Rustamga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Raxshga xos xususiyatlar tasviriga misollar	Suxrobgaga xos xususiyatlar tasviriga misollar
Afsonaviy kuchga egapahlavon, bo'yi hammadan baland, harbiy ishda iste'dotli, maharati yuksak sarkarda	Qora ko'zli, uzun dumli, oyoqlari qora, po'lat tuyoqli, fil quvvatli , bo'yi tuyadan uzun saman	Azamat polvon. O'n yoshga kiringanda unga tenglasha oladigan pahlavon topilmaydi.
...

⁶ Rajabova I. Interfaol usul – ta'lim samaradorligi omili. Til va adabiyot ta'limi – T.: 2015: 8-son.

Shu tariqa davom etamiz, o'quvchilar qahramonlarning o'zlari mustaqil anglab yetgan xususiyatlarini aytishadi. Asar mazmunini o'qib o'rganish va qahramonlar timsolini tavsiflashga alohida e'tibor qaratiladi. Shu yo'l bilan birga o'quvchilarga dasturda belgilangan nazariy tushunchalarni o'rgatish adabiy tahlil darslarini tashkil etish orqali amalga oshirilsa, albatta, o'z natijasini beradi.

Dars jarayonida hamkorlik texnologiyasini unumli va o'z o'rnida qo'llash orqali ta'lim tizimidagi natijalar anchagina samarali bo'ladi. Bunday texnologiya va usullarning o'ziga xos xususiyatlari, vaqtning unumdorligini oshishi, ijobiy natijalar berishi, qolaversa, bir tomonlama dars o'tishdan cheklanishni taqozo etadi. O'qituvchi o'z ishida hamkorlik texnologiyalari va zamonaviy usullardan foydalanishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida zerikmasdan faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Hamkorlik texnologiyalaridan dars davomida o'rinli foydalanilsa kutilgan maqsadga erishiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, bilimdonlik talab etiladi.

Adabiy ta'limda o'yin texnologiyalari o'qituvchi hamda o'quvchilarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Darslarda o'yin texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi va dars mavzusiga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Adabiyot darslarida o'yin texnologiyasini qo'llash yaxshi natija beradi. Biz Oliy ta'limda adabiyot darslarining tarkibiga kiruvchi mustaqil ta'lim darslarida Shoh Hijron "Shohnoma" o'yin texnologiyasi asosida o'qitishning quyidagi usullarini tavsiya qilamiz:

Ushbu texnologiya o'quvchilarni hikmatnini qiziqish bilan o'qishga undaydi hamda o'rgangan bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, hikmatning ning har bir detaligacha e'tibor bilan o'qishga harakat qiladi. O'z bilimlarni belgilangan vaqt ichida namoyish qilishga o'rganadi. O'yin texnologiyasi orqali guruhlar bilan ishlaganda esa sog'lom raqobat tushunchasi shakllanib boradi.

"Rustam" dostonini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil qilish usullari.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi⁷. Muammoli vaziyatni hosil qilish uchun o'qituvchi, avvalo, o'quv materialidan shunday vaziyatni topa olishi lozim. Ma'lumki, har qanday savol muammo bo'lib qolmaydi. Muammo ilmiy savol bo'lib, u bir necha asosli javoblarga egaligi bilan savoldan farqlanadi⁸.

Dastlab, birinchi darsimizda o'quvchilarni doston matni bilan tanishtiramiz. Bunda o'quvchilarga taqdimot asosida audio va video materiallardan foydalanib mavzu tushuntiriladi. Uyga vazifa qilib esa asar matnini o'qib kelish va kichik esse yozib kelish topshiriladi.

Keyingi darsimiz o'z-o'zidan bilimlarni mustahkamlash darsi bo'ladi. Dastlab o'quvchilar bilan "Rustam" dostoni xususida kichik **"Matbuot anjumani"** mashg'uloti

⁷ Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2006. – B. 67.

⁸ Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. –T.: 2018. – B. 183.

o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar "Rustam" dostoni bilan bog'liq axborotlarni jamoaviy tarzda birma-bir keltiradilar. Masalan:

1-guruh

- Dastlab, odamlar badiiy asarlarni og'zaki shaklda yaratishgan.
- "Rustam" dostonida xalqni ulug'lash, xalq zakovati kuch-kuch qudratini ko'rsatish.

2-guruh

- Dostonda Rustam oq dev, ajrang dev, ajdarho va she'rni yengadi.
- Rustam Turon malikasi Manijaga uylanadi.

3-guruh

- Suhrob dostoni "Shohnoma"dagi eng ta'sirli doston.

O'qituvchi ushbu ma'lumotlarni to'g'irlab tahlil qilib boradi. Bu texnologiya orqali o'quvchilarning doston haqida ma'lumotga egaligi sinovdan o'tkaziladi. "Rustam" dostonini muommoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitsak yanada yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan, "Debat" metodi orqali. Muammoli ta'limning o'ziga xos shakllaridan biri "Debat" metodidir. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bunda jamoaning har bir a'zosi o'zining burch va majburiyatlariga ega bo'ladi, kim g'alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o'qituvchi belgilab beradi. O'quvchilar bilan debat o'tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak:

- Debatlar ko'p narsaga o'rgatadi (Chunki debat o'tkazishdan maqsad faqat g'alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).
- Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o'zagi bo'lib, noto'g'ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto'g'ri yo'ldan ketishning oldini oladi).
- O'zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o'zga o'quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo'lsa, uning obro'sini to'kish maqsadga muvofiq emas. Chunki debat g'oyalari va bu g'oyalarning to'qnashuvidan iborat)⁹. "Debat" metodidan foydalanishimiz uchun, albatta, debatga mos bo'lgan muammoni topolishimiz lozim. Endilikda "Rustam" dostoni misolida "Debat" metodining amalga oshirilish jarayoni tavsiya etiladi.

⁹ Abdullayeva M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Ma'ruzalar matni. – T.; 2017. – 39.

1-guruh	2-guruh
Rustam va Suhrob jangida o'quvchilar Rustamni oqlaydi.	Rustam va Suhrob jangida o'quvchilar Rustamni qoralaydi.
Dostonda Rustam obrazi oldiga qo'ygan maqsadi ezgu maqsad, bu o'z vatanini yov qo'liga topshirmaslik. Shuning uchun ham bilak kuchi yetmagan joyda, hiyla ishlatishi tabiiy hol.	Rustam juda ayyor. Hattoki, o'g'liga yolg'on ishlatib, o'z tig'ida o'ldiradi.
...	...

Debatimiz shu tarzda davom etadi. O'quvchilar mustaqil fikrlarini bayon etib borishadi. Debat yakunida o'qituvchi muammo yuzasidan to'g'ri va aniq xulosalarni aytib o'tadi. Umumiy olganda 2-guruhning fikrlari g'olib bo'lishga ko'proq asos bo'la oladi. Lekin har ikkala guruhning fikrlari ham qaysidir ma'noda asosli ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Muammoli o'qitish texnologiyasida muammoli vaziyatni hal etishning turli darajalari mavjud. Jumladan,

- 1) o'qituvchi muommoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- 2) o'qituvchi muommoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

3) o'quvchilar o'zlari muommoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar. Biz yuqorida qo'llagan texnologiyada muommo o'qituvchi tomonidan qo'yiladi va uning yechimi o'quvchilar bilan birgalikda hal qilinadi. Lekin bugun jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv materialidan o'quvchilarning o'zlari muommoni topib, o'zlari uning yechimini aniqlaslar, chunki bunday usul bugungi talab qilinayotgan yetuk intellektni shakllantirishda eng samarali yo'l bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchi berilgan o'quv materialini yuzasidan yana ham chuqurroq mulohaza yuritishi talab etiladi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil o'zlashtirish va erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi¹⁰. Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchini har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga, mustaqil fikrlarini himoya qila olishga, eng asosiysi erkin fikrlashga o'rgatadi.

“Asar ustida ishlar ekan o'qituvchi barcha holat va xulosalarni tayyor holda taqdim etmay, bilimlar pardasini asta-sekinlik bilan ochadi. O'qituvchi bunday yo'ldan borganda

¹⁰ Abdullayeva M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Ma'ruzalar matni. – T.; 2017. – 42.

o'quvchini qiyoslash, taqqoslash, isbotlash kabi mustaqil aqliy faoliyatga undaydi va shu yo'l bilan ularning muayyan xulosaga kelishlariga ko'maklashadi¹¹ – deydi pedagogika fanlar doktori Qunduzxon Husanboyeva. Biz “Rustam” dostonini muammoli ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish bilan birgalikda, bir nechta pedagogik texnologiyalarni ham tavsiya qilamiz

“ Shohnomaga sayohat” texnologiyasi

Texnologiyani amalda qo'llashda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Har bir guruh dostonidan parcha olib, sahnalashtirishadi ya'ni jonli rol ijro etishadi. Masalan, birinchi guruh Rustam va Suhrob o'rtasidagi jang sahnasini ijro etib berishlari mumkin.

Rustamning Suhrob bilan jang qilgani

*Borib nayza oldi so 'niq jur'ati,
Ona so 'zin eslab ortar hayrati
To 'qnashuv maydonin tanlab tou tang
Qisqa payza bilan boshladilar jang
Nayzalardan qo 'lga qolganda dasta
Ot jilovin chapga burdi bir pasta
Endi ishga solib hindu qilichin
Har yon sochishardi olovli uchqun
Qahri keldi Rustam uni ko 'riboq
Na 'ra tortdi titrab ketti dasht-u tog '
Unga dedi: Ey turk beaql xunkor
Bulardan kim sen-la urushg 'ani bor?!
Unga dedi: Suhrob turoniy sipoh
Bu jangdan edi uzoqda begunoh*

Rustam va Suhrobning o'z o'rdalariga qaytgani

*Lashkargohga keldi tun so 'nggani choq,
Beli jangda tolga bilaklari charchoq.
Xummonga dedikim: bu erta quyosh
Chiqiboq boshlanadi qiyomat talosh.
Huddi quturgan shre 'r ovni qo 'ymaydi,
Qarib qolgan-u janggi to 'ymaydi.
Xummon unga dedikim: farmoni shoh
Joyidan qo 'zg 'almay turgandi sipoh
Mustahkam turardi safda qilt etmay
Lozim etsa qattol jangda bari shay.*

Suhrobning Rustam tig'ida halok bo'lgani

*Suhrob bir to 'lg 'onib tortdi sarig ' oh!
Unga endi birdak savobi gunoh
Otam bilsa mening tuproq ypostig 'im,
Xunim istab kelar, ko 'tarar tug 'im
Shuncha nomdorlardan bironta odam
Borib aytsa xabar toparku Rustam.*

¹¹ Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili.T., 2009, 163-bet.

*Gangib qoldi buni neshitib Rustam,
Qop qorang 'u bo 'ldi o 'ng-u ko 'zi ham.*

“Xalqona so’zlar” usuli orqali o’quvchi asar matni bilan tanishadi, notanish so’zlarning ma’nosini bilib oladi. Masalan:

Yazdon – Avesto ta’limotidagi
palang – makiyon o’rdak
tobnok – tog’ni egallab
qulon – kiyik
farsang – uzunlik o’lchovi.

“Tugallanmagan maktub” usuli

“Rustam” dostonida Eron bahodirlari, donishmand Gudarzdan Rustam bilan shohni yarashtirish chorasini ko’rishni iltimos qiladi. U Rustamdan shohni kechirib, Eron himoyasiga chiqishni iltimos qiladi. Rustam esa bunga javoban quyidagi misralarni keltiradi...

..._____ menga taxt, _____ yo‘lim,
_____ sovut, dilda yo‘q vaqti _____.
Menga _____ nedur, bir hovuch tuproq
Kim qo‘rqar _____ bo‘lsa bevoshroq
Ko‘nglim qoldi endi baridan to‘ydim.
_____ boshqayoq qo‘rqmayoq qo‘ydim.

To’ldirilishi kerak bo’lgan so’zlar: Egarim, to‘grilik, to‘nim, o‘lim, Kovus, Hudodan. 2-3-guruhlarga ham shunday matnlar tarqatiladi. Bu usul orqali o’quvchilarning zehni, xotirasi, jummalarni to’g’ri so’zlar bilan davom ettira olishi tekshiriladi. O’quvchilar shu kabi matnlarni shunchaki to’g’ridan to’g’ri o’qib ketishsa, qisqa vaqtdan so’ng, albatta, yodidan ko’tarilishi mumkin. Bu texnologiya esa shu kabi muammolarga yechim bo’lib xizmat qiladi.

O’quvchining asarni badiiy o’zlashtirishi uning tafakkuri va milliy ongi darajasidan ayri hol emas. O’quvchi bilan asar qahramonlari orasidagi munosabat va aloqadorlik qanchalik samimiy, yaqin bo’lsa, o’quvchi shaxsiyati o’zligini shunchalik to’la namoyish etadi. O’quvchi asardagi hodisalarni va hayot hodisalarini taqqoslar ekan, asl haqiqatni muhokamalarda topishga intiladi. Barchamizga ayonki, qaramaqarshi fikrlar o’rtasida tayyor haqiqat emas, yechimini kutayotgan muammo turadi. O’quvchining shu muammoni his qilib, ma’lum bir qarashlarga asoslanib, shaklga solishi haqiqatni izlash boshlanganidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytganda, “Rustam” dostonini o’qitishda innovatsion yondashuv o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini o’stirishga, milliy an’analarni chuqur anglashga yo’l ochadi. Milliy ruh, qahramonlik, alplik, vatanparvarlik sifatlarining shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva ,M. (2017) O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish texnaologiyalari va loyihalashtirish. Ma’ruzalar matni. – T.; 42-43.

2. Abdurakhmonova ,N. (2019) Dependency parsing based on Uzbek Corpus. *InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)* 1-4
3. Abdurakhmonov, N. (2017) Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*. 5(03) 89-100.
4. Azizxo‘jayeva, N. (2006) Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.; 67.
5. Кларин М.В. (1995) Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига: НПЦ Эксперимент,
6. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. (2018) O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. –T.; 183.
7. Rajabova, I. (2015) Interfaol usul – ta’lim samaradorligi omili. *Til va adabiyot ta’limi* – T.: 8-son.
8. To‘xliyev,B. (2010) Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: www.Ziyouz.com kutubxonasi.